

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№11 (66396)
2003 yil
17 mart
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

LOBAR «LOCHIN» QIZLARI

Har kuni Lyudmila opa sport maydoniga yo'l olar ekan, qani endi mening ishimni davom ettiradigan haqiqiy shogirdim bo'lsa-yu O'zbekistonda velosipedchi qizlar klubini tashkil etib, yurtimiz nomini dunyoga tanitsa, deb niyat qilardi.

Maydonga kirib kelgan murabbiyni sport kiyimlarini kiyib, «uchar otlari»ni shay qilib turgan shogirdlari iliq kutib olishadi. Intizom bor joyda g'alaba bo'ladi, degan shiorni dillariga jo qilib olgan sportchilar katta orzular qanotida mashg'ulotlarni boshlashadi.

Xalqaro sport ustasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy Lyudmila Markelova butun umrini velosportga bag'ishlagan. Tinimsiz mashg'ulotlar, olis yo'l, xalqaro musobaqalardan bo'shamagan...

Mana, Tailandda o'tkaziladigan xalqaro musobaqaga yo'llanma olishdi va... O'zbekiston chempioni Baxtiniso Safarova faxriy 3-o'rinni egallab, «Bronza medali» sovrindori bo'ldi. Ustoz shogirdiga guldasta tutar ekan, biz albatta «Oltin medal»ni ham qo'lga kiritamiz, dedi quvonib. Nihoyat, 2001 yilning oktabr oyida Malayziyada o'tkazilgan Perlis-OPEN musobaqasida o'zbekistonlik sportchilar juda yaxshi natija ko'rsatishdi va musobaqa yakunida o'zbek qizi Baxtiniso Safarova mag'rur shoxsupaga ko'tarildi. Unga, 1-o'rin sohibasiga butun dunyo sportchilari oldida «Oltin medal» topshirildi. Baxtiniso ustozlarining, beshinchi sinfdan mitti qo'lchalaridan yetaklab, shu klubga katta umidlar bilan olib kelgan onajoni Fotima opaning, jondan ortiq ko'rgan ona



xalqining ishonchini oqlaganidan boshi osmonda edi. Uyga qaytib kelgach, o'zi yashagan mahalla raisi Yo'ldosh aka Halilov bilan maslahatlashib, Mirzo

Ulug'bek tuman hokimi Abduazim Majidov qabuliga bordi. Hokim yurtimiz ishonchini oqlagan Baxtinisoga qo'lidan kelgan barcha yordamini berishga, sport kiyimlari, 15 ta sport velosipedi va zaruriy

anjomlar bilan ta'minlashga so'z berdi. Ko'p o'tmay, unga tumandagi 27-o'rta maktabdan alohida sport mashg'ulotlari o'tkazish uchun joy ajratib berishdi. Eng sog'lom, eng chaqqon va eng a'lochi qizlardan 30 nafari tanlab olindi. Mashg'ulotlar qizaloqlarning yoshiga mos tarzda boshlab yuborildi. Tez kunda yosh qizaloqlar orasidan ham kuchlilari ajralib, 1-guruhdan Gulnoza Akbaraliyeva, Sasha va Katya Baranina, Sevara Umidjonova, Tanya Matulskaya katta natijalar ko'rsatdi.

2-guruhdan Zebo Ahmedova, Tanya Rudalinskaya, Nigora Temirova, Malika Shermuhammedova, Saodat Axrorxo'jayeva o'zlarining sportdagi intizomi va yengil atletika natijalari bilan hammaga o'rnak bo'la boshladi.

Ohuday uchqur, lochinday sezgir bu qizaloqlar ikki g'ildirak ustida jahon kezib, O'zbekiston bayrog'ini hilpiratib, olam uzra g'oliblik nashidasini surishsin, deymiz. Ularga omad, baxt, baland shoxsupalardan taxt tilaymiz.

Ozoda MUHAMMEDOVA.

**SENI SOG'INDIM,
BAHOR!**

Quvnoq yallalarini,
Iliq pallalarini,
Aytgan allalarini,
Sog'indim, bahor!
Go'zal bayramlaringni,
Quvnoq, hamdamlaringni,
Ulug' ayyomlaringni,
Sog'indim, bahor!

*Sayyora VAHOBOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi Oybek nomli
25 - o'rta maktabning
10 - «A» sinf o'quvchisi.*

Prezident asarlarini
o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi.
Boshi o'tgan sonlarda).

«To'rtinchi hokimiyat» hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo'l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg'otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

XULOSA

Milliy istiqlol mafkurasi dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalqining istiqlol yillarida orttirgan tajribalari, bosib o'tgan murakkab yo'li, milliy tafakkuri va ma'naviyatidagi yuksalishlarning mantiqiy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllanadi.

Bu—uzoq davom etadigan jarayon. Milliy istiqlol mafkurasi xalqning, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad-muddaolari amalga osha borgan, taraqqiyot tajribalari ortgani sari boyib, takomillashaveradi.

Istiqlol mafkurasining ilg'or g'oyalari asosida har bir avlod dunyoga o'z so'zini aytadi, tariximiz kitobida o'zining shonli sahifasini yaratadi.

Bu mafkura erkin fuqarolik jamiyati, farovon hayot barpo etishga azmu qaror qilgan, bu yo'lda sobitqadamlik bilan olg'a borayotgan xalq mafkurasidir. U hayotbaxsh kuchi, jozibasi bilan jamiyatning barcha qatlamlari qalbi va ongiga ta'sir etadi.

Mafkura—inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vosita. Uning g'oyalari xalqning ishonch-e'tiqodi, intilish va manfaatlariga ifodasiga aylansagina yetarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, fuqarolarning tushunchasi, aql-idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda, sabr-toqat bilan, ma'rifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

Bu borada kampaniyabozlik, kimo'zarga musobaqa uyushtirish, ma'muriy tazyiq o'tkazish usuli kutilgan natijani bermaydi. Ayniqsa, milliy istiqlol mafkurasi yuqoridan turib joriy etilishi yoki biron-bir partiya, harakat va guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanishi mumkin emas.

Milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, jamiyat hayotining ma'naviy mezoni bo'lib, tafakkur o'zgarishi, odamlar ongida yangicha dunyoqarashning shakllanishi va ijtimoiy fikr rivoji uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.



QUVONCHLI BAYRAM

Tong chog'ida uyg'onib,
Sevinchim ko'zda yonib.
Onajonim quchaman,
Naq samoga uchaman,
Bayramingiz muborak.
Ulg'aytirgan u bizni,
Unutib butkul o'zni.
U bor quyosh kuladi,
Dunyo nurga to'ladi,
Bayramingiz muborak.



Muqaddas TAYLONOVA,
Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi
175-maktabning 3- «B» sinf o'quvchisi.

O'SADIGAN ZO'R SOVG'A

Mana, yurtimizga bahor kirib keldi. Havolar isib ketdi. Sinfimiz bilan mehribon ustozimiz Muharrama opa Nasullayeva boshchiligida juda ko'p tadbirlar, bayramlar o'tkazib turamiz. Mana, yaqinda biz «Yurtim ozod, mahallam obod» degan mavzuda bayram o'tkazdik. Kechada maktab rahbari Samad aka Inoyatov va ota-onalar qatnashishdi. Sinf o'quvchilari

O'zbekiston
h a q i d a ,
b a h o r
h a q i d a ,
o b o d
M a h a l l a
h a q i d a
s h e ' r l a r v a
q o ' s h i q l a r
a y t i s h d i .

S o n i y a

Farmonova, Sevara Hidoyatova, Alisher G'aniyevlarning chiqishlari hammaga manzur bo'ldi. Biz kelgan mehmonlarga qo'llarimiz bilan yasagan o'yinchoqlar, gerbariylarni sovg'a qildik. Ular esa atirgul, har xil mevali daraxtlar ko'chatlarini sovg'a qilishdi. Gullab meva beradigan, o'sib ko'nglimizni quvnatadigan bu sovg'alardan biz g'oyat xursand bo'lib ketdik.

Charosxon AMINJONOVA,
Buxoro shahridagi 34- o'rta maktabning
2- «B» sinf o'quvchisi.

Taklif


MAKTABGA ELTIB QO'YADIGAN...

Maktabga tez-tez kech qolaman. Darsni, qolaversa, o'quvchilar diqqatini buzganim uchun ustozimiz xafa bo'ldilar. Natijada tushuntirish xati yozishimga to'g'ri keladi.

Uyimiz maktabdan ancha olisda, yana bitta emas, ikkita avtobusda borishimga to'g'ri keladi. 34-, 53-avtobuslarning kamligi bois bir men emas, juda ko'plab o'quvchilar, talabalar darslarga kech qolamiz. Mutasaddi amakilarimiz ertalablari hamma ishga, o'qishga shoshib turgan paytda avtobuslarning sonini ko'paytirib qo'yishsa bo'lmasmikan-a?!

Eshitishimcha, g'arb mamlakatlarida o'quvchilarni maktabga eltib qo'yadigan maxsus avtobuslar bo'larkan. Kinofilmlarda papkalarini ko'tarib, o'z avtobuslariga chiqib ketayotgan bolalarni ko'rib, havasimiz keladi. Mustaqil diyorumizda ham shunday tizim yo'lga qo'yilsa, oylik yo'l chiptalarimiz bilan o'z avtobusimizda maktabga borsak, juda yaxshi bo'lardi-da.

Madina ABDURAHMONOVA,
Toshkentdagi Orom nomli maktabning
9 - «A» sinf o'quvchisi.



YULDUZLARDAY KO'P BO'LSIN

Bolalikka oshno yuraklar bir umr bola bo'lib qolar ekan. Buxoro sharifdan gullar shahri Namanganga kelin bo'lgan

Ta'zim

Ro'zigul opangiz yana bolalar olamiga sho'ng'idi.

Bolalar bog'chasida tarbiyachi, maktabda o'qituvchi, tuman xalq ta'limi bo'limida nuqsonli bolalar bo'yicha defektolog... O'z niyatini amalga oshirish uchun o'jarligi, to'g'ri so'zligi, intizom bilan ishga kirishishi odamlar e'tiborini tortdi. Ota-onalar mehrini qozondi. Hamma ham o'z farzandini haqiqiy ustoz qo'lga topshirishni o'ylaydi-da, axir. Uning jonkuyarligi, tinib-tinchimasligi bois, qayerda mehnat qilmasin, o'sha yer gullab-yashnab, fayzga to'lib ketishi aniq. Chust Xalq Ta'limi bo'limi boshlig'i Abduxalil Hamidjonov va maktabgacha tarbiya bo'limi boshlig'i Marhabo Ahmedovalar unga shahardagi 1-, undan keyin 32-bolalar bog'chasiga mudirlik qilishni tavsiya etishdi. Ro'zigul esa



o'z-o'zidan ma'lum, bu vazifalarni bajarishga qanot chiqarib oshiqdi. Chunki bolajonlar bilan ishlash, ularni unib o'sishini nazorat qilish ustoz uchun sharaf edi. Ish joyini dastlab ta'mirlab, obod qilishga harakat qiladigan Ro'zigul Anorqulova sport maydonchalarini kengaytirishga ham ahamiyat berdi. Endilikda uning bog'chasiga borganlar zamon talablariga javob beradigan bino, undagi anjomlar, eng asosiysi erki, xush chiroy bilan tarbiyalanayotgan bolajonlarga havas bilan qaraydi. Mudira kim va qayerdan bizga yordam berarkan deb kutib o'tirmasdan, izlanib imkon topganiga qoyil qoladi. Shahardagi 27- «Gulshan» bolalar bog'chasi va «Nurafshon» jamoa xo'jaligidagi «Nargiza» bolalar bog'chasi Ro'zigul opaning haqiqiy mehr qo'ygan ish joyiga aylangan. Bu bog'chalardagi sport-sog'lomlashtirish maydonchalari, kattagina zal, ochiq suv havzalari, fito-bar, unda faoliyat ko'rsatayotgan karate to'garagi, «Shahnoza» dastasi, o'z mehnatlari bilan tashkillagan qo'g'irchoq teatri ko'pchilikning og'ziga tushgan. Shuning uchun ham bu bog'chalarga o'z bolalarini berishga intilgan ota-onalar bog'chaning «Sehrli barmoqchalar», «Kim chaqqon», «Har doim bo'lsin quyosh» kabi bellashuvlarining haqiqiy muxlislariga aylanishgan. Hozirgi kunda «Uch mingginchi yil bolasi» davlat



talablari asosida ish olib borayotgan Ro'zigul opa kelajakda kompyuter xonasi, yopiq suv havzasi, muolaja xonalarini tashkil qilish maqsadida yelib yugurib yuribdi. Aziz ustoz, mehribon murabbiyga mitti qo'lchalardan yetaklabel-yurtga qo'shayotgan farzandlaringiz soni yulduzlarday ko'payib ketsin, deymiz.

Ilvira
OTAMURODOVA.

MATEMATIKA - FANLAR ICHRA SHOH

Biz «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini zo'r qiziqish bilan o'qib boramiz. Sinfimiz matematika faniga ixtisoslashgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, gazetadagi boshqotirmalarni zo'r qiziqish bilan yechamiz. Ayniqsa, skanvordlar ustida talashib-tortishib ham ketamiz. Biz faqat matematika faniga bog'lanib qolmasdan, boshqa fanlarni ham «yaxshi» va «a'lo» baholarga o'zlashtirishga harakat qilamiz. Maktabimizdagi barcha tadbirlarda faol qatnashamiz. Sinf rahbarimiz Sharofat opa Ro'ziyeva bizga sinfimiz intizomini nazorat qilish bilan birga matematika fanining sir-sinoatlarini sabr-bardosh bilan o'rgatadilar. Biz sinfimiz nomidan ushbu jonkuyar ustozimizni bahoriy bayramlar bilan qutlaymiz. Mas'uliyatli ishlaringizda doimo omad yor bo'lsin, aziz ustozimiz Sharofat opa!

Dildora YO'LDOSHEVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 8- «A» sinf o'quvchisi.

«MOVIYLAR GURUHI»

(Fantastik ertak)

MUSTAQILYURTIMNING GUL-CHECHAKLARI!

Jiyavim Boburjon 3-sinfda o'qiydi. Uning kitobsevarligi, hammam narsaga qiziquvchanligi menga juda yoqadi. Avvalgi, uning ertaklar o'qib, o'zi ham ertaklar to'qishi maqtovga arziydi. Uning ertaklarida ezgulikning qaror topishi, o'zga olam tasviri fantastik jihatdan qiziqarli jonlantiriladi. E'tibori uga havola qilinayotgan ushbu fantastik ertak siz kelajonlarda ham albatta ilq taassurot qoldiradi, deb o'ylayman. O'qing, siz ham yosh qalankashga omadlar tilang.

Mayluda **IBROHIMOVA,**

fantastik yozuvchi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Malika Mohinurning tug'ilgan kuni hammamiz ertaklar bog'iga bordik. Bu yer «Shodlik» sayyorasidagi eng ajoyib bog' ekan. Bog' sharbat mevalaru til yorar ananaslarga to'la. Shokoladli muzqaymoqlar, odam bo'yi keladigan tortlari «Neskvik» ichimligi jonimizga orokirdi. Hammabolalar shodu hurrar, qo'shiq aytib, raqs tushishardi. Anavi shalpanquloq Salim esa malikaning orqasidan qolmasdi. Aylanib qizil o'rdaklar suzib yurgan ko'l tomon o'tdim. Qarasam, Mohinur gullar bilan bezatilgan arg'imchoqda yolg'iz uchayotgan ekan, meni ko'rishi bilan arg'imchoqni sekinlatdi. Qo'lida binafsharang munchoq, katta charos ko'zlarida quvonch porlaydi.

-Buni qara! - munchog'ini ko'z-ko'z qildi u.

Jilmayib uni olqishladim:

-Qulluq bo'lsin!

-Ol, senga ham! - dedi u munchoqning bir shodasini menga uzatarkan.

-Munchoqni nima qilaman, o'g'il bolaman-ku! - dedim men.

Malika sharaqlab kulib yubordi.

-Bu munchoq emas, uzum-ku!

Uzum shundayin mazali ediki, ichida danagi ham yo'q. Keyin u bilan birga rosa arg'imchoq uchdik.

-Mohinur, qayerdasiz? - bir payt kanizaklar uni izlab qolishdi.

Malika ketayotib, menga bir quticha tutqazdi. Xuddi gugurt qutisi deysiz.

-Bu telefon! - tushuntirdi u, - gaplashsa bo'ladi. Qulog'ingga tut-chi!

Ishonib- ishonmay uni quloqqa tutdim.

-Alyo', Sherzod meni eshityapsanmi? Endi telefon-telefon o'ynaymiz! - dedi malika shodon. Keyin ortiga o'girilib chopib ketdi. O'shanda malikani so'nggi marta ko'rayotganimni bilmagan ekanman. Mohinur ko'pincha tug'ilgan kuni o'tgach, sayyoralararo sayrga chiqardi. Shunday sayohatlarining birida uni o'zga sayyoralik qaroqchilar o'g'irlab ketishdi. Biz singari 9-10 yoshli bolalarni katta maydonga to'plashdi va «Moviylar guruhi» tuzildi. Bizga moviy engil-bosh berishdi. Boshimizga esa peshonasiga ko'k olmos tosh qadalgan do'ppi kiygandik.

Harbiy tayyorgarliklar boshlandi. Bizga odamni karaxtlaydigan nur va lazer to'punchadan qanday foydalanishni o'rgatishdi.

Ertalab shoshib kiyinayotgandim, cho'ntagimdan bir nima taraqlab yerga tushdi. Qarasam, Mohinur bergan quticha! Oldimu cho'ntakka yashirdim. Qalbmida esa umid. Axir shu quticha yordamida uni topish mumkin-ku!

Mashqlar tugagach, o'sha biz so'nggi bor ko'rishgan ko'l bo'yiga bordim-da, guldor arg'imchoqqa o'tirib, qutichani og'zimga tutdim.

-Mohinur, alyo'!? Qayerdasiz, javob bering! - Ammo qutichadan hech qanday sado chiqmadi.

«Ha, bu o'yinchoq telefon ekan-da! Faqat yaqin masofadan gaplashish mumkin».

Shu payt ko'l bo'yidagi daraxtlar shitirlab, kimdir gurs-gurs qilib chogancha qochdi. Sapchib o'rimdan turdimuni uni quva ketdim. Qorong'ida uni taniyolmadim. Ammo uning «Moviylar guruhi» dan ekanligi aniq.

O'ramizda sotqin bor! - degan fikr keldi miyamga, ehtiyot bo'lish kerak. Axir sotqin bo'lmasa o'sha qaroqchilar malikaning koinot sayriga chiqishini qayoqdan bilishgan?!

Demak, u yaqin atrofdagi sayyoralarda, uni uzoqqa olib ketisholmagan. Fikrlarimni Oliy Qo'mondonlikka aytdim. Ertasigayoq o'n chog'lik «Moviylar» o'zga sayyora uchadigan bo'ldik.

«Charxpalak» atalmish sayyora qilar ishimiz - malikani izlash. Sotqinni ham unutmagandim. Shu bois qopqon hozirladim. U telefon qutichani izlab, kamzulimni titkilashi

aniq. Kiyimimni stulga taxlab, uni qalin ip bilan tepaga uladim. Qalin ipga esakamon o'qio'matdim. Kimki

kamzulimga tegsa, o'q otildi va yuqoridan «o'g'ri» ning ustiga to'r qop tushadi.

O'zim esa qutichamni olib, malikani qidirib ketdim. «Charxpalak» sayyorasida oqar daryo bor. Daryoga esa yuz xil rang-barang charxpalaklar o'rnatilgan. Suv bo'yiga borishim bilan telefon qutichamga jon kirdi go'yo. Undan kimningdir ingrayotgani eshitilardi.

-Im, oh, im...

Bu malikaning ovozi edi.

-Malika Mohinur, qayerdasiz, javob bering?

-Im...

O'ylab o'tirmay suvga sho'ng'idim. Suv ostida suzib, ancha joyini ko'zdan kechirdim, ammo natija yo'q, malikaning ovozi esa yaqindan eshitilardi.

-Im! - telefonda suvning shaloplangani eshitildi. Ratsiya orqali aloqaga chiqib, Mohinur iziga tushganligimni, yordam kerakligini aytdim. «Moviylar guruhi» bir soniyaga qolmay yetib kelishdi. Barchamiz maxsus asboblardan yordamida malikaning yashirilgan joyini aniqladik. Suv ostida qaroqchilar qarorgohi bor ekan. Ular bu yerga ikki poyloqchi qo'yib, o'zlari Mohinurning otasidan pul undirgani ketishgandi. Paytdan foydalanib, malikani ozod etdik. Chodirga qaytganimizda esa stulim yonida bir bolaning tipirchilab yotganini ko'rib, hayratda qoldim. Ha, bu o'sha Salim edi. Tug'ilgan kun bayramida Mohinurning ortidan qolmagan, Sheryurakni otgan ham shu edi. Uni darrov hibsga oldik. Bilasizmi, uning narsalari ichidan nimatopildi? Yong'oqli bir kilo shokolad bilan o'yinchoq mashina. U qaroqchilarga shular evaziga sotilgan ekan.

Qaytgach, «Moviylar guruhi» sharafiga ziyofat uyushtirildi. Shokoladli tort deganini rosa uyub tashlashibdi-da. Telefon qutichamdan zing-zing etgan ovoz eshitildi. Uni cho'ntakdan oldim.

-Alyo', eshitaman.

-Sherzod, rahmat senga! - bu malika Mohinurning ovozi edi.

Bobur IBROHIMOV,

Toshkent shahridagi 110- maktabning

3- «G» sinf o'quvchisi.

Istiqlolning yorug' tungi tufayli yurtimizda ko'plab nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shunday tashkilotlardan biri «Toshkent ijtimoiy ma'rifat markazi» hisoblanadi. Tashkilot mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlar bilan shug'ullanadi hamda kelajak avlodni erkin, mustaqil fikr, ish

IRODA:

-Men boshlang'ich maktabda tabiatshunoslik fanidan dars beraman va bugungi kun tinib-tinchimas, barcha narsaga qiziquvchan, intiluvchan yoshlarga dars berish qandaydir ma'noda mashaqqatli deb bilaman. Biroq, men ushbu anjumandan juda ko'p yangi ma'lumotlar oldim,

DUNYOGA YO'L

yuritishga, doimo izlanishda bo'lishga o'rgatadi. Ushbu tashkilot har yili (Tadbir) yoshlarni murabbiylikka tayyorlashga qaratilgan anjumanlar, yozgi oromgohlar tashkil etadi. Yaqinda Polshaning «Demokratiya uchun maorif fondi» deb atalgan nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda navbatdagi anjuman o'tkazildi.

Anjumanda yoshlar o'z oldilariga aniq-ravshan maqsad qo'yib oldilar. Maqsad - haqiqiy murabbiy bo'lib yetishmoq va olingan bilimni mamlakatimiz hududi bo'ylab tarqatmoqdan iborat.

«Hayotdagi maqsadimiz - bizning kelajagimiz va baxtimizning asosi», deb hisoblagan anjuman ishtirokchilarining fikrlari bilan tanishsak:

Farrux AHMEDOV:

-Toshkent Ijtimoiy Ma'rifat Markazi tashkil qilgan anjumanlarda avvallari ham qatnashganman va bu men uchun qanchalik muhim ekanligini juda yaxshi bilaman. Murabbiy bo'lish bir qarashda osondek tuyuladi, biroq u o'qituvchilik kasbidan ham murakkabroq, deb hisoblayman. Ushbu anjuman menga yoshlar bilan qanday ishlash kerakligini o'rgatdi hamda avvalgi bilimlarimni mustahkamlab olishga ko'mak berdi.

maktab o'quvchilarini qiziqitira oladigan turli-tuman o'yinlar o'rgandim. Bu anjuman men uchun malaka oshirish bo'ldi desam, yangilashmagan bo'laman. Endi olgan bilimlarimni ish faoliyatimda tadbir etish niyatidaman. Zero, bahs-munozarali darslar, tadbirlar kelajagimiz bo'lmish yoshlarni komillikka yetaklaydi.

SHOHRUH:

-Anjumanda Polsha, Ukraina, Tojikiston, Xorazmdan kelgan bir qancha murabbiylardan qanday qilib anjuman olib borishni, qatnashchilar bilan qanday muomalada bo'lishni hamda murabbiylar qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligini o'rganib oldik. Bu barcha o'tganlarimizni biz - bo'lajak murabbiylar mamlakatimiz hududidagi maktablarga tarqatishga qaror qildik, ya'ni viloyatlar bo'ylab safarlar uyushtirib, u yerdagi maktablarda anjumanlar tashkil qilishga kelishib oldik.

KOMILA:

-Bu anjumandan olgan taassurotlarim juda cheksiz. Xuddi shunday anjumanlar hozirgi kun uchun, bugungi yoshlar uchun nihoyatda muhim. Uning tashkilotchilariga chuqur minnatdorchilik bildiraman hamda yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy ongini yuksaltiruvchi anjumanlar tez-tez o'tkazilib turilishining tarafdoriman.

Suhbatdosh: Aziza HAYDAROVA,

O'zMUning Jurnalistika fakulteti talabasi.

Kasblar ko'p dunyoda

UZOQNI YAQIN QILAMIZ


Bolaligim Belorussiyada o'tgan. Ota-onam chernoblchilarga yordamga

borib, o'sha yerda ishlashgan. Biz har yili ona yurtimizga 3-4 sutkada poyezdda kelardik. O'sha paytlar butun bir boshli poyezdni 2-3 kishi boshqarib, shuncha insonni manziliga eson-omon olib keladigan mashinistlarga qoyil qolardim va kelajakda xuddi o'shalardek dovyurak, bardoshli va mard, o'z ishini biluvchi haqiqiy mashinist bo'lishni dilimga tugib qo'ygandim. Orzularim meni

Toshkent shahridagi Temir yo'l lokomotiv-mashinistchilar kollejiga yetaklab keldi. Bu yerda biz o'quvchilarga yaxshi o'qib bilim olishimiz uchun hamma sharoitlar yaratib berilgan. Kompyuter xonalari, top-toza yotoqxonalar, oshxonalar biz talabalarning ixtiyorida. Bunday sharoitlarni ko'rib, yana ham mas'uliyatli bo'lish kerakligini anglaymiz. Ustozlarimizdan Dilshod aka bizni doimo hushyor bo'lishimizni uqtiradilar. Chunki mashinist nafaqat yuklarni, balki odamlarni ham tashishi, ularning hayoti uchun javobgar bo'lishlari kerak.

Kollejimiz direktori Laziz aka Yunusov, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha ustozimiz Ma'mura opa biz talabalarni har bir kunimizni maroqli va mazmunli o'tishi uchun astoydil mehnat qilishayapti. Bunga javoban biz ham kelajakda ona yurtimiz xizmat qiluvchi, o'z kasbini sevuvchi insonlar bo'lib yetishishga so'z beramiz. Odamlarni manzillariga eson-omon yetkazib, bizga bildirilgan ishonchni oqlaymiz.

Jasur NIZOMOV.



Maktab sahnasi uchun

To'liqin ESHBEK

Asosiy ishtirok etuvchilar:

Bahoroy – qiz.
Navro'zjon – yigit.
Dehqon bobo – yigit.
Keksa tol daraxti – yigit.
Boychechak – qiz.
Lolaxon – qiz.
Turnaxon – qiz.
Laylakboy – yigit.
Qaldirg'och – qiz.

Turli epizodlarda:

Qishni olib ketayotgan qarg'alar – bola va qiz.

Sahna bahor bayramiga mos ravishda bezatiladi.

Sahnaga Bahoroy kirib keladi. U uzun gulli ko'ylak kiyib, boshiga gulchambar taqqan.

– Assalomu alaykum, aziz mehmonlar! Sizlarni Navro'z bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman. Ulug' ayyom yurtimizga qut-baraka olib kelsin.

*Bahordan boshlanar go'zallik fasli,
Yilning ilk tongidir olamda asli.*

*Navro'zni xush ko'rgan xush yashar abad,
Baxtga musharrafdir ul inson nasli!*

Bugungi shodiyonamizni boshlab berish hamda tabrik uchun so'z hurmatli rahbarimizga.

Tabrik so'zini aytgan rahbar bayram tanlovi haqida quyidagi mazmunda ham gapirishi mumkin:

– Azaldan Navro'z bayramida turli ko'rik-tanlov hamda musobaqalar o'tkazilgani ma'lum. «Eng yaxshi Navro'z taomlari tayyorlash», «Eng mohir kashtachi», «Navro'z tasvirini chizgan eng yaxshi rassom» va hokazo. Bu bayram munosabati bilan kurash, arqon tortish, qo'l kuchini sinash, yugurish, shaxmat-shashka, tosh ko'tarish, dor o'yini va boshqa sport turlari bo'yicha ham musobaqalar o'tkazilgan. Biz ham mana shunday g'oliblarni bugun olqishlaymiz.

(Tashkilotchi tanlov shartlari, tashkiliy ishlar va boshqa fikr-mulohazalarini bayon etishi mumkin. G'oliblar badiiy qism so'ngida e'lon qilinadi).

Bahoroy:

– Qizlar gulli ro'mol o'rar,
O'zlarin qilib ko'z-ko'z.
Zamin yangi ko'ylak kiyar,
Kelsa Navro'z, bo'lsa Navro'z.
Endi davramizga eng aziz mehmon – Navro'zjonni taklif etamiz.

Hammajo'rovoda:

– Assalom, Navro'z! Davramizga marhabo!
Sahnaga beqasam (yo boshqa matodan tikilgan) to'n va boshiga do'ppi kiygan Navro'z qo'lini ko'ksiga qo'yganча kirib keladi.

Navro'zjon:

– Odamlar odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar!
Dildan qish g'ami ketdi,
Barcha Navro'zga yetdi!
Childirmani chalingiz,
Raqqosa, ayla xirom.
Bu bayram davramizda,
Barchangiz oling orom.

Olamni turfa gullarga burkab kelgan bahor ayyomi muborak bo'lsin, azizlar! Bu bahor shunchaki fasl emas, balki u har bir inson umrining bahori. Men barcha chehralarda bahor tarovatini ko'ryapman!

Bahoroy:

– Navro'zjon, sen kelishing hamono yeng shimarib ishga kirishadigan va bu kunni – mehnat bayrami sifatida nishonlaydigan ajoyib insonlarni bilasanmi?

Navro'zjon:

– Eng birinchisi – Dehqon bobom-da!
Ana, o'zlari tashrif buyurmoqdalar!

Bahoroy va Navro'zjon jo'r bo'lishib:

– Assalomu alaykum, bobo dehqonim!
Sahovati cheksiz nurli bo'stonim!

Davruga dehqon ketmon (yoki boshqa ish qurolini) ko'tarib kiradi va qo'lini ko'ksiga qo'yganча mehmonlarga salom beradi.

Dehqonbobo:

– *Omoç haydar tinim bilmay,
Dehqon ila qo'sh ho'kiz,
Nasibamiz butun bo'lar,*

NAVRO'Z

Kelsa Navro'z, bo'lsa Navro'z.

*Oloç, o'zing asragin-yey,
Tegmasin hech yomon ko'z.
Momolarim ruhlari shod,*

Kelsa Navro'z, bo'lsa Navro'z.

Ha, azizlar, Navro'z ezgulik bayrami. Bu kun kim nimani niyat qilsa, albatta erishadi. Katta-yu kichikning duolariga quloq tutsangiz: «dehqonchilikka baraka bersin», deya yaratgandan so'rashadi.

Bahoroy:

– Dehqonchilik nafaqat insonlar, balki, qushlar, jonivorlar uchun ham rizqu ro'z manbaidir.

Iya, ana, qaranglar, qushlar uchib kelishyapti, ur-re!

Navro'zjon:

– Qushlar bilan birga gullar ham yelib kelishmoqda! Ular ortidan Tol buva hassasiga tayanib kelayotir. Endi haqiqiy bayram boshlanadi, ur-re!

(Bahor faslini tarannum etuvchi musiqa sadolari ostida o'ziga xos liboslardagi Tol buva, Boychechak, Lolaxon, Laylakboy, Turnaxon, Qaldirg'och davraga kirib kelishadi. Ular tomoshabinlar tomonga qarab egilib salom berishadi).

Bahoroy:

– Xush kelibsiz, mehmonlar! Men uchun aziz jonlar!

Mehmonlar jo'rovoda:

– Tashakkur, senga bahor! Barcha bo'lsin senga yor!

Boychechak:

– Bahoroyim, Bahoroy!
Yuzlaring muncha chiroy!
Yurtga sen kelgan chog'da –
Olam go'zallikka boy!
Men ham sening elchingman,
Neni so'ylay – tilchingman!

Lolaxon:

– Men Lolaman, Lolaman!
Bir go'zal qiz bolaman.
Chiroyimga mahliyo,
Men-la yosharar dunyo!
Tog'-adirda lolalar,
Ko'rib quvnang, bolalar!

Laylakboy:

– Qanot qoqdim, yurt kezdim,
Ko'kda ko'p narsa sezdim.
O'zi bo'lib bir jahon,
Yashnabdi – O'zbekiston!
Turnaxon:
– Qur-ye, qur-ye, deb uchdim,
Go'yo osmonni quechdim.
Dunyoga qilib ko'z-ko'z,
Tantana qilmish Navro'z.

Qaldirg'och:

– Mehrjon bayramida,
Mehr ko'rib ketganman.
Ayni ko'klam chog'ida,
Murodimga yetganman.
Odamlarning uyida,
In qurishdir odatim.
Insonlarning baxti-la,
Mening ham saodatim.

Bahoroy:

– Ko'pni ko'rgan chol buva,
Qani so'ylang, Tol buva,
Qandoq bayramdir Navro'z?

Bilib olurmiz so'zsiz!

Tol buva sallasini to'g'rilab qo'yganча salmoq bilan so'zlaydi:

– Meni derlar keksa tol,
Misoli donishmand chol.
Haqiqatni ko'zlayman,
Donolikdan so'zlayman.

Tanam bo'lsa-da qari,
Bilganim – bilmas pari!
Novdalarim har Navro'z,
Yaprog'in qilar ko'z-ko'z.
Ishga bo'lib payvasta,
Shoxlarim – ketmondasta!
Sirdoshim – bobodehqon,
Bizlar bir tanu bir jon!

Qaldirg'och:

– Mening inimni kim biladi?

Tol buva: – Shox-shabbalarim chumchuq, qarg'a, hakka va boshqa qushlarga makon. Sen negadir ko'rinmaysan, qaldirg'och?

Dehqonbobo:

– Bu erkatoyning ini bizning uy ayvonida!

Qaldirg'och:

– Odamlar bilan birga yashashimizning tarixi uzun, shundaymi Dehqon bobo?

Dehqonbobo:

– Albatta, qaldirg'ochim! Qani bu haqda do'stlaringga aytib berasanmi?

Qaldirg'och:

– Ayt desangiz, aytaveraman. Qadimda ajdodimiz insonlarga yaxshilik qilib, ilon bilan kurashgan. O'shandan buyon biz uchun odamlarning uylari, ayvonlarida in qurish odat bo'lgan. Birga yashagach, biz ulardagi ajib fazilatlarini kuzatamiz. Navro'z bayramida bir-birlariga mehr-muruvvatli, oqibatli va mehribon bo'lib qoladilar. Nuroniyarlarni ziyorat qilib, bemorlar holidan xabar olishadi. Beva-bechoralarga sahovat ko'rsatiladi.

Lolaxon:

– Bir-biridan arazlab yurgan kishilar ham Navro'zda yarashib olar ekanlar-a?

Dehqonbobo:

– O'zbeklarning ajoyib maqoli bor: «Bir kun janjal bo'lgan joydan qirq kun baraka qochadi». Dilozorlik qilgan kimsalar ginasini Navro'zda unutishadi.

Shu payt g'amgin ohangda musiqa tovushi eshitiladi. Hamma bezovtalanib atrofga boqadi.

Bahoroy:

– Negadir etim uvishyapti, sovqotib ketyapman. Voy, anovilar kim bo'ldiykin?

Hamma hayron bo'lganча sahnaning bir tomoniga o'tadilar. Qag'illab qanot qoqqanча ikki qarg'a kirib kelishadi.

Qarg'alar jo'rovoda:

– Biz qarg'amiz, qarg'amiz, qog'-qog',
Ko'nglimizni etgaymiz chog'-chog'.
Bu yil qishda yog'di qor tog'-tog',
Tabiatda qolmadi biror dog'-g'!

Tol buva kulib yuboradi:

– Ey, bular ham eski qadrdonlarim-ku!
Qishdan darak berib keladigan qushlarga ham shoxlarim makon. Xo'sh, olaqanotlar, siz bilan xayrlashgan edik, chog'i...

Qiz qarg'a:

– Tol buvajan, Tol buva!
Tilingizda bol, buva!
Shirin so'zlaringizdan,
Hamma sarmast, lol, buva!
Bag'ringizdan berib joy,
Qilgan ishingiz chiroy!
Tag'in qishda kelganda,
Ko'rishurmiz, hoyna-hoy!
Bola qarg'a:

– Atay ortga qaytishimiz sababi bor.

Tol buva:

– Xo'sh-xo'sh?

Bola qarg'a:

– Yorug'likning qadriga yetmoq uchun zim-ziyo tunni eslab turish kifoya, degan edingiz, to'g'rimi Tol buva?

Tol buva:

– Albatta. Xo'sh, bu gapni hozir eslash shartmi, Qarg'avoy?

Bola qarg'a:

– Sovuq o'lkalarga uchib ketayotib ortga boqsak, suhbat quryapsizlar.

Tol buva:

– Xo'sh, siz biror gap aytmoqchimisiz?

Qiz qarg'a:

– Hu qay bir yili Navro'z bayramini nishonlash ta'qiqlanganini ko'rgandik. O'sha kezlarda hamma joyga faqat qizil bayroq ilinardi. O'zbekiston mustaqil bo'lganida Navro'z katta shodiyonaga aylanib ketdi. Bu kunlarning qadriga yetish kerak!

Tol buva:

– O'tmishdagi gina-kuduratlar o'tib ketdi. U haqda ko'p eslash shartmas. Yaxshilikdan so'ylasang, yaxshilik bog'iko'karadi. Har yili erta ko'klamda ko'klamzorlashtirish oyligi o'tkaziladi. Mening ham novdalarimdan avaylab olishib, ko'p joylarga ekishadi.

Qaldirg'och:

– Qadimdan bu yurt odamlarida ajoyib an'ana bor, oilada o'g'il bola tug'ilsa, unga atab kamida o'n besh-yigirma tup daraxt ekiladi. Bola ulg'aygunga qadar daraxtlar ko'kka bo'y cho'zadi. Qarabsizki, uning imoratiga yetarli yog'och tayyor-da!

Navro'zjon:

– Daraxti ko'p yurt – boy bo'ladi!

Bola qarg'a:

– To'g'ri-to'g'ri, qag'-qag'...

Qiz qarg'a (sherigini turtib):

– Hoy, bo'ldi, qag'illayverma, tag'in qor yog'vormasin...

Bola qarg'a:

– Unda yo'limizda ravona bo'lamizmi?

Qiz qarg'a: – Qani, sovuq o'lkalarga ketdik, qag'-qag', (qanotlarini silkitishadi) xayr do'stlar, kuzda uchrashguncha omon bo'lingla-ar, qag'-qag'-qag'...

Tol buva:

– Yo'llaring bexatar bo'lsin. Oltin kuzda ko'rishguncha xayr, aziz qushlarim.

Turnaxon:

– Tol buva, bag'ringiz kengligiga qoyil!

Tol buva:

– Bu qushlarning kuz fasli qanot qoqib kelishini ko'rsangiz dilingiz yayraydi. Qishni, qorni, pirovardida yangi yil bayramini eslatadi. O'shanda sovuq havo kelsinu ammo hecham sovuq gap kelmasin, deyman!..

Turnaxon:

– Qanot qoqsak, qur-ye, qur-ye,
Navro'z kelar, ur-ye, ur-ye!

Bahoroy:

– Bayramga nima fayz kiritadi?

Navro'zjon:

– Albatta kuy-qo'shiq va raqs-da!

Qaldirg'och:

– Bir charx urib raqsqa tushamizmi? (U parvozga shaylanayotgandek qanotlarini silkiq bo'yadi). Bizga ohangrabodek qo'shiq bo'lsa bas!

Sahna ortidan kuy, qo'shiq yangrab, barcha raqsqa tushadi.

Bayramga turli san'atkorlar taklif etilishi va ular ijrosida Navro'z tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar tinglanishi, askiyabozlik qilinishi ayni muddaodir.

Bayramga tashrif buyurgan mehmonlarga tabrik uchun so'z beriladi.

Dehqon bobo, Navro'zjon, Bahoroy, qushlaru gullar jo'r bo'lishib:


*Davramizga marhabo, kulib-o'ynaymiz,
To' abad bayramda birga quvnaymiz!*

*Baxt bahori kulsin bizning jahonda,
Navro'z boqiy bo'lsin – O'zbekistonda!*

Sahna yopiladi.



Iqtisod saboqlari



Aziz tanlov qatnashchilari!
 Mana, iqtisodiy bilim asoslari bo'yicha tanlovimiz ham nihoyasiga yetay deb qoldi. Bugun e'tiboringizga berilayotgan topshirig'imiz o'zgacha. Uni o'qituvchingiz bilan birgalikda bajarishingizga to'g'ri keladi.
 Va'damizga ko'ra, g'oliblarni Navro'z bayrami arafasida e'lon qilishimiz lozim edi. Sizdan kelayotgan xatlar kechikayotganligi uchun g'oliblarni aprel oyi boshida e'lon qilishga qaror qildik. Sovrinlarni topshirish marosimini aprel oyi o'rtalarida o'tkazish mo'ljallanyapti. G'oliblar haqida aniq ma'lumotlarni gazetamizning keyingi sonlarida e'lon qilamiz.
Tanlov tashkilotchilari.

Tanlovimizning navbatdagi topshirig'i!

Aziz tanlov qatnashchilari, keyingi topshirig'imiz bevosita sizga qaratilmagan bo'lsa-da, siz orqali iqtisodiy ta'lim to'g'risida o'qituvchilaringizning fikrini bilmoqchi edik. Quyidagi so'rovnomani qirqib olib, o'qituvchingizdan uni to'ldirib berishni iltimos qiling va uni gazeta tahririyatiga o'z nomingizdan yo'llang. Bu topshirig'imizni bajarganingiz uchun 10 ball jamlagan umumiy ballaringizga qo'shiladi.

S O' R O V N O M A

Hurmatli hamkasblar!

Biz «Iqtisodiy bilim asoslari» darsligi mualliflari E.Sariqov va B.Haydarov maktablarda iqtisodiy ta'limning ahvoli va uni takomillashtirish bo'yicha Siz «Iqtisodiy bilim asoslari» fani o'qituvchilarining fikrlaringizni bilish niyatida edik. Javoblarga xolisona va haqqoniy javob bering. Bu biz uchun juda muhim! Tadqiqotimiz natijalari kelajakda «Iqtisodiy bilim asoslari» fani bo'yicha darsliklarni takomillashtirishda va ularni qayta nashrida hisobga olinadi. Shuningdek, ob'yektiv va to'laqonli javoblaringiz bilan o'quvchilaringizning tanlovda to'plagan ballariga 10 ball qo'shgan bo'lasiz! Mazkur savollarga bergan javoblaringiz bilan siz ushbu ishga o'z hissangizni qo'shasiz, degan umiddamiz.

Oldindan sizga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

1. Ma'lumotingiz _____
2. Mutaxassisligingiz _____
3. Yoshingiz _____
4. Mehnat stajingiz _____ yil, shu jumladan pedagogik stajingiz _____ yil
5. Necha yildan buyon «Iqtisodiy bilim asoslari» (IBA) fani o'qituvchisi bo'lib ishlaysiz? _____
6. Qayerda va qachon «IBA» fani bo'yicha malakangizni oshirgansiz? _____
7. Maktabingizda «IBA» fanidan qaysi sinflarda va necha soatdan dars beryapsiz?

Sinflar	1-4	5	6	7	8	9	10	12
Soatlar								

8. «IBA» fani bo'yicha jami necha soat dars beryapsiz?

Sinflar	1-4	5	6	7	8	9	10	12
Soatlar								

9. Qanday adabiyotlar va o'quv qo'llanmalaridan foydalanasiz?

- 1) E.Sariqov, B.Haydarov, «Iqtisodiy bilim asoslari»;
 - 2) E.Sariqov, M.Mamatov, «Iqtisodiyot va biznes asoslari»;
 - 3) A.O'lmasov «Iqtisodiyot asoslari»;
 - 4) Ye.M.Matveyev «Iqtisodiy bilim asoslari»;
 - 5) _____
 - 6) _____
10. O'quvchilarning darsliklar bilan ta'minlangani (foizlarda)
11. Maktab kutubxonasida «IBA» fani bo'yicha qanday adabiyotlar bor?

- 1) E.Sariqov, B.Haydarov, «Iqtisodiy bilim asoslari»;
 - 2) E.Sariqov, M.Mamatov, «Iqtisodiyot va biznes asoslari»;
 - 3) A.O'lmasov «Iqtisodiyot asoslari»;
 - 4) Ye.M.Matveyev «Iqtisodiy bilim asoslari»;
 - 5) _____
 - 6) _____
12. Siz yangi davlat ta'lim standartlari (DTS) bilan tanishmisiz?

- 1) Tanish emasman;
- 2) Varaqlaganman;
- 3) O'qiganman;
- 4) O'rganganman va tahlil qilganman.

13. «IBA» fani bo'yicha yangi DTS to'g'risida fikringiz?

- | | | |
|--|----|------|
| | Ha | Yo'q |
| 1. Davlat, jamoat va milliy manfaatlariga mos keladimi? | | |
| | Ha | Yo'q |
| 2. O'quvchilarning yoshi va fiziologik qobiliyatiga mos keladimi? | | |
| | Ha | Yo'q |
| 3. To'liq iqtisodiy ta'lim olishga yo'naltirilganmi? | | |
| | Ha | Yo'q |
| 4. Iqtisodiy madaniyat va dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilganmi? | | |
| | Ha | Yo'q |
14. «IBA» fani bo'yicha qaysi o'quv dasturidan foydalanasiz?

- 1) Amaldagi tasdiqlangan dastur;
 - 2) Mualliflar tomonidan taqdim qilinayotgan yangi dastur;
 - 3) Matveyev dasturi;
 - 4) O'z dasturim;
 - 5) Boshqa dasturlar.
15. «IBA» fani bo'yicha yangi o'quv dasturi bilan tanishmisiz?

- 1) Tanish emasman;
- 2) Varaqlaganman;
- 3) O'qiganman;
- 4) O'rganganman va tahlil qilganman.

16. Dasturda keltirilgan mavzular DTSni to'liq darajada qamrab oladimi? 1. Ha; 2. Yo'q.

- a) _____ mavzularni dasturga kiritish kerak.
- b) _____ mavzularni dasturdan chiqarish kerak.

17. «IBA» fani bo'yicha o'quv dasturiga munosabatingiz:

Atfzallik	Kamchiliklar
1. Standart talablariga mos keladi	1. Mavzular ketma-ketligi noto'g'ri belgilangan
2. Soatlar to'g'ri taqsimlangan	2. Soatlar noto'g'ri taqsimlangan
3. O'quvchilarning yoshi va ruhiy qobiliyatlari hisobga olingan	3. O'quvchilarning yoshi va ruhiy qobiliyati hisobga olinmagan
4. Mavzular ketma-ketligi to'g'ri belgilangan	4. Standart talablariga mos kelmaydi

18. O'quvchilarning yil davomida o'zlashtirishini baholash uchun nazoratning qaysi shakllaridan (necha marta) foydalanasiz?

Test	Amaliy mashg'ulotlar
Yozma ish	Mustaqil ish
Og'zaki savol va javoblar	Nazoratning boshqa shakllari

19. «IBA» fani bo'yicha darslarda quyidagi o'qitish uslublaridan yil davomida qancha foydalanasiz? (vaqt bo'yicha %)

Ma'ruza	Aqliy hujum
Amaliy mashg'ulot.	Kichik guruhlarda ish
Suhbat	O'yin darslari
Bahs-munozara	Boshqa interaktiv uslublar

20. Yangi darslikning qaysi xususiyatlarini eng muhim deb hisoblaysiz?

Darslikning xususiyatlari: (besh balli tizimda) 1 2 3 4 5

1. DTS va dasturga mos kelishi;
2. Milliy g'oya tamoyillarining aks ettirilishi;
3. Tushunarli va osonligi;
4. Mavzularning qiziqarli ifodalanganligi;
5. Ma'lumotlarning haqqoniyligi;
6. Yangi tushunchalarning me'yorida berilganligi;
7. Hayotiy misollarning borligi;
8. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlarning borligi;
9. Oraliq nazorat topshiriqlarining borligi;
10. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar bilan birga chop etilishi;
11. Darslikning o'rtacha sifati va narxining arzonligi;
12. Yana qaysi ijobiy va salbiy e'tiborga molik?


21. Sizning fikringizcha, darslikdan qanday foydalanish kerak?

	har doim	ba'zida	hech qachon
1. Darsda ayrim matnlarni o'qish uchun			
2. Darsda mashqlar bajarish uchun			
3. Uyda nazariy materiallarni o'qish uchun			
4. Uy vazifasini bajarish uchun			

22. Respublikada iqtisodiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha taklifingiz:

KATTA YO'LDAGI VOQEA

Bu voqeani menga dadam aytib bergan edilar. U paytlarda dadamlarning katta KaMAZ mashinalari bor edi. Uzoq safarlarda bo'lardilar. Bir kuni dadam sheriklari bilan uyga qaytayotgan ekanlar. Sheriklari uxlashga yotgan, dadam esa juda charchasalar-da, sheriklarini ko'zlarini qiyamay biroz yo'l yuray, deb yo'lga qarab kelaveribdilar. Shu payt katta yo'lni birov kesibo'tayotganini ko'rib qolibdilar. Borkuchlari bilan tormozni bosibdilar. Mashina tez kelayotgani uchun ariqqa bir tomoni bilan tushib, qiyshayib qolibdi. Atrofga chang ko'tarilibdi. Mashinadan sakrab tushib, haligi odamni qidira boshlabdilar. Qarasalar, yo'l chetida bir odam dadamga baqrayib qarab turgan emish. Yo'lda har xil odamlar uchraydi, deb o'ylagan dadam sal uzoqroqda to'xtabdilar va ularga salom beribdilar. U odam esa hech narsa demabdi. Shunda dadamning jahllari chiqib, ko'zingga qarab o'tmaysanmi, deb baqiribdilar. Shunda haligi odam sof o'zbek tilida, «Horma, o'g'lim,



charchamadingmi», debdi. Dadam nima deyishlarini bilmay, kalovlanib qolibdilar. Keyin ulardan uzr so'rab, yo'ldan ehtiyot bo'lib o'tishlarini so'rabdilar. Haligi mo'ysafid esa kulib, «Mayli bolam, mayli», deb, dadamni uzoq duo qilibdilar. Bu orada dadamning sheriklari boshqa mashina topib, ariqqa tushgan mashinani tortib chiqarishibdi. Dadam u odamdan qayerga ketayotganini so'ramoqchi bo'lib

qarasalar, mo'ysafid yo'qemish. Bu voqeadan hayron bo'lib, bu tog'li yo'lda bir zumda qayerga ketishlari mumkin, deb o'ylab, dadam nima qilishlarini bilmay, yana yo'lga tushibdilar.


Azizbek

QAHRAMON o'g'li,
Parkent tumanidagi
27-o'rta maktabning
7-sinfo'quvchisi.

«CHO'QQAYMA TOSH» SIRI

Biz Cho'qqayma qishlog'ida yashaymiz. Bu qishlog'imizga nima uchun bunday nom berilganini bobomlardan so'rab bilib olganman. Endi esa sizlarga so'zlab bermoqchiman:

-Bizning qishlog'imizdan oldin bu yerlar dala-dasht bo'lgan ekan. Bu yerlarda odamlar qo'y-qo'zilarini boqib,



kun kechirishar ekan. Bir kuni bir jahldor cho'pon bizning tomonlarga

qo'ylarini yoyibdi. O'zi esa mazza qilib dam olishga cho'zilibdi. Birdan uning oldiga bir chol kelib o'tiribdi. Cho'pon cholni

hurmati uchun o'rnidan ham turmabdi.

Chol unga: -O'g'lim, bir qultum suv ber, juda chanqab ketdim, -debdi.

Cho'pon unga orqasini o'girib:

- Suv yo'q, bor, boshqalardan so'ra, -debdi. Chol o'rnidan turib,

keta boshlabdi. Cho'pon bu orada turib, suv

olmoqchi bo'lib, cho'nqayib o'tiribdiyu o'rnidan tura olmay, shu bo'yicha toshga aylanib qolibdi...

Xuddi o'sha tosh bizning uyimizning to'g'risida joylashgan. Unga tikilib qarasangiz, chindan ham cho'qqayib o'tirgan odamning shakliga o'xshaydi. Bizning qishlog'imiz shuning uchun ham Cho'qqayma deb ataladi.

Sunnatbek RAHIMBOYEV,

Parkent tumanidagi 8-maktabning
5-sinf o'quvchisi.

MASHINANING «PIRLARI» BO'LADIMI?

Mening dadam haydovchi bo'lib ishlaydilar. Har xil mashinalar haydaydilar. Lekin har safar yangi mashina olganlarida buvim «Mashinaning pirlari uchun masjidga qatlama qilib chiqaramiz», deyдилar. Bir kuni buvimdan: -Buvim, mashinaning pirlari qanaqa bo'ladi? - deb so'radim. Shunda buvijonim: -Temir-tersaklarning, hamma narsaning pirlari bo'ladi. Agar o'sha pirlar norozi bo'lsa, odamning ishi yurishmaydi. Ana shuning uchun ham har doim dadangni pirlar qo'llab-quvvatlashlari uchun masjidga qatlama qilib chiqaramiz. Domlalar qur'on tilovat qilib, dadangning yo'llarini bexatar qilishlarini so'raydilar, tushundingmi, -dedilar. Men ham shunda dadamlarni ishlari doim o'ngidan kelishini, har doim yo'llari bexatar bo'lishini xudodan so'rab fотиha qildim.



Kunlardan bir kun...

Aziz ustozlar! Sizning o'quvchilaringiz bundan ham qiziqarliroq voqealarni bilishar balki. O'quvchilaringizdan shu mavzuda insho oling va maktub orqali bizga jo'nating. Maktubingizni kutamiz!

Mohira ALIMBOYEVA,
Yuqori-Chirchiq tumani, Yangibozor qo'rg'oni.

Bizning uyimiz qishloqning eng chekkasida joylashgan. Hovlimizning oxirida kattagina

jarlik ham bor. Bir kuni oyijonim kechqurun mollarning ma'rashidan uyg'onib ketibdilar. Oyim o'rnilaridan turib, molxona tomonga ketayotgan ekanlar, bir sharpa lipetib yonlaridan o'tib ketibdi. Oyim qo'rqib, o'zlarini chetga olibdilar. Ertasiga bu voqeani dadamga aytib beribdilar. Dadam, ularning ustilaridan kulib: Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi, -debdi. Lekin ertasi kuni yana mollarimiz

TUNGI «MEHMON»

bezovta bo'lib ma'ray boshlabdi. Bu safar ko'chaga dadam choponlarini yelkalariga olib chiqibdilar. Kechagi sharpa dadamning oldilaridan o'tayotib, choponlariga tegib ketibdi va yerga tushirib yuboribdi. Yelkalariga turtilib ketgan chindan ham odam ekanligini payqagan dadam qo'rqib ketibdilar. Choponlarini olmoqchi bo'lib yerga engashibdilar. Shu payt g'ira-shirada haligi


odamning yung bosgan oyog'ini ko'rib qolibdilar. Dadam bismilloh, deb uyga asta-sekin qaytibdilar. Qaytayotib, orqalariga qarab-qarab qo'yarmishlar. Haligi yungli odam esa yo'q bo'lib qolganmish... Shu voqeadan keyin dadam bizlarni ham kechqurun ko'chaga chiqarmay qolganlar. «Tungi mehmon»ning kimligi esa sirligicha qolaverdi...

Davron JUMAQULOV,

Yuqori-Chirchiq tumani, A.Yassaviy jamoa
xo'jaligi.

MAJNUNTOL

ekan. Ular qasrni navbatma-navbat bezatib turisharkan. Bahor, Yoz, Kuz, Qish ekan ularning nomlari. Bahor qasrni yashillika burkasa, Yoz turfa chechaklari bilan bezarkan. Kuz yomg'ir suvlari bilan chang, g'uborlardan tozalab, qasrga oltinrang libos kiydirsa, Qish sadafdek oppoq qilib qo'yarkan. Ana shu dunyodagi eng go'zal qasrda Majnuntol ismli bir malika yasharkan. Yomg'ir uning sochlarini tarasa, shamol ularni tarab, turmaklab qo'yarkan...



Bor ekanu yo'q ekan, och ekanu to'q ekan. Atrof guliston ekan, hur bog'u bo'ston ekan. Ana shu bog'u bo'ston tomonda «Tabiat» deb atalmish bir qasr bor ekan. Bu qasrda mo'jizalar shunaqayam ko'p ekanki, asti qo'yaverasiz. Unda to'rtta chevar yashar



Majnuntolning yakka-yu yagona o'g'li bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun o'ta g'arazgo'y, ko'ngli tor, yovuz Bo'ron qasrga hujum qilibdi. Majnuntol nima qilarini bilmay turganda, o'g'li, «Oyijon, men Bo'ron bilan kurashaman. Agar jangdan qaytmasam, xafa bo'lmang. Ruhim osmonga chiqib ketgan bo'ladi va yomg'ir bo'lib yana qayta yerga tushaman», debdi. Ona zor-zor yig'lab, rozi bo'libdi. Farzandiga omadlar tilabdi. Ammo o'g'li jangdan qaytmabdi. Shundan buyon Majnuntol o'g'lini qo'msab, sochlarini yoyib, daryo bo'yida o'tirarkan.

Gulruhbegim SAYFIDDIN qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at
litseyi o'quvchisi.

Hayot manbai

x x x

Bolajonlar, bilasizlarmi, Ona sayyoramizdagi toza suv zahirasi yildan-yilga kamayib insoniyatni tashvishga solmoqda. Keyingi yillarda daryolarning sanoat va maishiy zaharli moddalar bilan zararlanish darajasi ortib, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi qo'llanilayotgan zararli kimyoviy moddalar ham qo'shildi. Yog'in suvlari va oqava suvlar, dalalardan yuvib olib kelgan zaharli moddalar daryo, ko'l va boshqa havzalarga tarqalishi bu juda yomon. Suv muammosi qanday yo'llar bilan hal qilinadi? Buning uchta yo'li bor: birinchidan, daryo suvini to'la tartibga solish, ya'ni suv omborlari qurish, ikkinchidan bu qurilish daryo havzalari o'rtasida suvni qayta taqsimlashni amalga oshiradi yoki suv boyliklari haddan ziyod ko'p bo'lgan tumanlardan suvning anchagina qismini suv tanqis bo'lgan tumanlarga olib borish, uchinchidan esa har bir havza ichida suvni tejab sarflashga qaratilgan tashkiliy iqtisodiy tadbirlar bo'lib, suv tarmoqlarini qayta qurish, oqava suvlardan qayta foydalanish, yangi texnikani joriy qilishdan iboratdir.

Suvdan foydalanishning sug'orish normalari va usullari mavjud. Sug'orish me'yori 1 gektar yerni bir marta sug'orishga sarflanadigan suv miqdoridir, u kubometr birligida o'lchanadi. Sug'orish usullari esa quyidagilardan iborat:

1. Oqar suv bilan sug'orish.
2. Yog'dirib sug'orish.

3. Tuproq ostidan sug'orish.

Oqar suv bilan sug'orish: yoppasiga sug'orish,

SUG'ORISHDA SIV QANDAY TEJALADI?

bostirib sug'orish, egatlab sug'orish usullaridan iborat bo'lib, yoppasiga sug'orishda ekilgan ekinlar yoppasiga sug'orilgan, hozirda bu usul bilan sug'orilmaydi, chunki uning ayrim kamchiliklari mavjud. Bostirib sug'orish asosan sholi va tuproqning sho'rini yuvish uchun qo'llaniladi. Egatlab sug'orishda esa qator oralariga ishlov beriladigan ekinlarni sug'orishda foydalanilib, bunda tuproq yemirilishi sodir bo'lmaydi, suv tejaladi.

Yog'dirib sug'orish: bu usulning afzalligi havoning yerga yaqin qismi namlanadi, havodagi ba'zi unsurlar (azot, kislorod) yomg'ir orqali o'simlikka va tuproqqa tushadi.

Tomchilatib sug'orish: bu har bir ekinning ildiz qismiga quvurlar yordamida tomchilatib sug'oriladi.

Ha bolajonlar, insonning xilma-xil ehtiyojlari uchun iste'mol qilinadigan toza suvni nihoyatda ardoqlab, ehtiyot qilish siz va bizning muhim vazifamizdir.

Iskandar MAMATQULOV,

Poytaxtimisdagi 305 - ekolitseyning Oliy toifali o'qituvchisi.

x x x

Ma'lumotlarga qaraganda sayyoramizdagi 2 milliardga yaqin aholi toza ichimlik suvi tanqisligiga uchragan.

Buning asosiy sababi ekin maydonlarining kengayishi va suv boyliklarini amalda kamayib borayotganligi, vujudga kelgan ekologik noxush jarayonlardir.

Dunyo bo'yicha suv zahiralari 97 foizni tashkil qilsa-da, undan ichish, qishloq xo'jaligi va sanoat sohasida to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Suv zahiralarning 3 foizi inson tomonidan xo'jalik faoliyatida ishlatiladi.

E'tibor bering-a, yer shari bo'yicha o'tgan asrdagi sug'oriladigan yerlar maydoni hozirgi kunda 8 martaga ortgan, ularning umumiy maydoni esa 3 million gektardan ziyoddir. Sug'oriladigan yerlarning yillik o'sishi o'tgan asrning 70-yillariga kelib jadal rivojlana borib, qariyb 4 million gektarni tashkil etdi.

O'zbekistonda esa sug'oriladigan yerlar maydoni 1,8 million gektardan 4,2 million gektarga ortdi. Maishiy turmush uchun o'rtacha bir kishiga sarf bo'ladigan suvning miqdori 400 litrni tashkil etadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, barcha tabiiy boyliklar kabi suv boyliklaridan ham oqilona foydalanish, uni tejab ishlatish bugungi kunda har birimizning eng muhim vazifamizdir.

Bizning 305 - ekolitseyda aholining suvga bo'lgan talabini qondirish va katta maydonlarga ega bo'lgan ekinlarni yetarlicha sug'orish to'g'risidagi bilimlar qunt bilan o'rgatilmog'la. Biz bundan g'oyat mamnunmiz.

Sarvar YO'LDOSHEV,
9- «A» sinf o'qituvchisi.

Onalar yozadi

BOLALIK BIR KELAR,
KETAR...

Oy yarim, ko'nglim yarim,
Oy to'lar, ko'nglim to'lmas.
Dunyo keng, ko'ngillar tor,
Ketdim! Ketmasam bo'lmas.
Ey ko'ngil, g'arib ko'ngil,
O'zgaga «sadqa» bo'lding.
O'zgaralar «o'zin» dedi,
Tanho g'amlarga to'lding.
Yuragim, oh yuragim,
G'amlarga bo'lding talosh.
Ko'zim yoshlari tinmas,
Yoshimni artar bardosh.
Oy yarim, ko'nglim yarim,
Oy to'lar, ko'nglim to'lmas.
Dunyo keng, ko'ngillar tor,
Ketdim! Ketmasam bo'lmas...

x x x

Bolalik bir kelar-ketar,
Tafti qolar yurakda.
Tushlaringga kirib chiqar,
Bir zumgina pinakda.
Sog'inasan, qo'msaysan zor,
Chorlasang hech kelmaydi.
Bolalikda chopgan omad,
Endi esa kulmaydi.
Beg'uborlik sog'inasan,
Yoru do'stning bariga.
Jonni fido qilging kelar,
Zoriqqanning koriga.
Holing ne, deb so'raydigan
Ba'zan bo'lar, ba'zan yo'q.
Taqdir so'qmoqlari ichra,
Seni izlar, daydi o'q.
Izlay-izlay topmaganim,
Sog'inch otlig' ko'z yoshim.
Yorqin nursan bolaligim-
Qo'l hech yetmas Quyoshim!

Zamira SAFAROVA.



ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

bo'lgan: ko'pincha har xil janjallarga aralashib, tengdoshlariga yomon namuna ko'rsatgan: noma'qul xatti-harakati uchun necha bor jazolangan, ammo bundan doimo ham tegishli xulosa chiqarmagan: shu

“Bunday aqli ko'rlik olim uchun o'zining ko'zi ojizligidan ham yuz marta dahshatliroq edi. O'sha davrdagi ma'lumotnomalarga ishonadigan bo'lsak, yosh Lobachevskiyning fe'l-atvori juda og'ir

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

"GEOMETRIYANI NOMUKAMMAL BILDIM"



vaqt mobaynida sinf jurnali va sahifalari tikilgan daftarga 33 marta nomi tushib tanbeh yozilgan».

Nikolay tez va keskin o'zgardi, yorqin va jo'shqin tabiatli kishilarda ko'p uchraganidek, sarkash fe'lini tizginlab, odamovi, badqovoq kimsa bo'lmasa ham, har qalay bosiq va xomush odamga aylandi. Lekin, hatto professor Lobachevskiy, rektor Lobachevskiyda ham fe'l-atvor qandaydir tarzda tugal shakllanmagandek tuyuladi. Chunki ularning xatti-harakati va mushohada yo'nalishi umum qabul qilingan doiraga sig'maydi. Ular ko'p marta o'tkazilgan tajribalarni yana takrorlashni lozim topishmaydi, xullas bunday odamlarni tushunish qiyin. Unvon, lavozim, orden, pul - bularning bari Lobachevskiy uchun boshqalar nazarida mustahkam asos ustiga qurilgan omonat ustqurma edi, xolos.

(Davomi bor).

Otalar yozadi

DO'PPI KIYIBSAN
BOLAM

Boshginang saqla omon,
Qoshimda kulgin har on,
Omad kular sen tomon-
Elim suyubsan, bolam,
Do'ppi kiyibsan, bolam.
Urug'im olgan do'ppi,
Ulug'dan qolgan do'ppi,
Bor cho'g'im solgan do'ppi-
Dilim suyubsan, bolam,
Do'ppi kiyibsan, bolam.
Ustoz Hamid Olimjon,
Mumtoz G'afur G'ulomjon,
Mirtemir kiygan har on-
Ilmim suyubsan, bolam,
Do'ppi kiyibsan, bolam.
Xalqimga yoqayin deb,
Qalbinga boqayin, deb,
Daryodek oqayin deb-
Holim suyubsan, bolam,
Do'ppi kiyibsan, bolam.
Do'ppi kiygan bor og'am,
Ham birodar, yor, tog'am,
Yasha, Bahodir, beg'am-
Yo'lim suyubsan, bolam,
Do'ppim kiyibsan, bolam.

Bahodir O'RINOV,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi 13 - o'rta maktab
o'qituvchisi, O'zbekiston Xalq ta'limi
a'lochisi.

Bizning to'garak

«Assalomu alaykum qadrli «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari! Biz Said Baratov, Dilobar To'rayeva va Nurjahon Erklar Chiroqchi tumanidagi Abray aka Xudoyberganov rahbarlik qilayotgan bolalar ijodkorlik markazining «Tasviriy san'at» to'garagi a'zolarimiz. To'garagimiz rahbari Malika opa Nurimetova biz kabi 20 dan ziyod shogirdlaridan bor bilim va mahoratlarini ayamaydilar. Chizgan rasmlarimizni ko'rib, kamchiliklarini ko'rsatadilar, o'z ustimizda tinimsiz

ishlashimizni talab qiladilar. Tuman miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni olib kelayotganimiz ham bejiz emas.

«Bizning to'garak» sahifangizda «Rasmlar ko'rgazmasi»ni tashkil qilganingiz rassomchilikka qiziquvchan biz kabi bolalar uchun ayni muddao bo'ldi-da. Chizgan rasmlarimiz ana shu ko'rgazmadan joy olsa, xursand bo'lardik».

Tahririyatimizga shunday mazmundagi maktublarning ko'plab kelayotgani bizni juda quvontiradi. Zero, o'z qalbidan go'zalikka, san'atga o'rin topa olgan bolalardan yomonlik kutib bo'lmaydi.

RASMLAR KO'RGAZMASI



MENING MAHALLAM

Mahalla - erur do'stlar,
Vatan ichra bir vatan.
Farovon bu makonga,
Fido bo'lsin jonu tan.
Unda yayrab o'samiz,
Sho'xliklar qilib yayrab.
Bir oiladek inoq,
Keksa-yosh mehrin tarab.
Mahallamiz bir quyosh,
Nurida cho'milamiz.
Qadrlab, qadrlanib,
Baxtlarga ko'milamiz.

*Oltinoy SHAVKATJON qizi,
Farg'ona viloyati, Quva
tumanidagi 17 - o'rta maktabning
2 - «A» sinf o'quvchisi.*

O'qituvchi o'quvchilardan

so'rabdi:

-Bolalar, qo'limdagi mana shu tangani idishdagi suvga tashlasam eriydimi?
-Erimaydi, -debdi ulardan biri hozirjavoblik bilan.
-Juda to'g'ri, qayerdan bilding?

-Eriganda, tashlamagan bo'lardingiz...

x x x

Jajji Azamat taajjublanib onasidan so'radi:
-Oyi, ukam mendan necha yosh kichik?
-To'rt yosh, o'g'lim. Nega so'rayapsan?
-Aldayapsiz, axir uning bo'yi menikidan ikki qarich baland-ku...

*Adiba ERGASHEVA,
Toshkent shahar, Yunusobod
tumanidagi 273 - litsey maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.*



Eng yaqin dugonam Aziza poytaxtimizning

Sirg'ali tumanida yashaydi. Men shaharning bir burchagida bo'lsam, u ikkinchi burchagida yashaydi hisob. Uyimiz uzoq bo'lsa ham, ko'nglimiz yaqin. Biror hafta ko'rishmasak, xuddi nimanidir yo'qotib qo'ygandek bo'laveramiz.

Bayram arafasida dugonamni qutlagani borsam, maktabdan hali qaytmagan ekan. Oyisining, hozir kelib qoladi, o'tirib tur, deyishlariga qaramay dugonam tahsil oladigan 322 - maktabga oshiqdim. Buni qarangi, shu kuni sevimli yozuvchimiz Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludining 98 yilligiga bag'ishlangan «Yulduzlar ichra Oy» deb nomlangan adabiy-badiiy kompozitsion kecha bo'layotgan ekan. Tomoshabinlar bilan liq to'la zalga kirib, ular qatoridan o'rin oldim. Kechada 8 - «G» sinfnig «Na'matak» hamda 8 - «A» sinfnig «Kelajak yulduzlari» guruhlar 5 ta shart bo'yicha o'zaro bellashishdi. Dugonam Aziza Vorisovani bilag'onu zukkoligi uchun guruhning sardori qilib tayinlashibdi. Raqib guruhning sardori Oybek Karimov ham bo'sh kelmasi, topqirligi, hozirjavobligi bilan ustozlari-yu sinfdoshlari ishonchini oqladi.

O'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan adibning asarlari asosidagi sahna ko'rinishlarini miriqib tomosha qildik. She'rlaridan tinglab, hayoti va ijodiga oid ko'plab ma'lumotlarni bilib oldik.

Adabiy kecha juda maroqli va qiziqarli o'tgani bois, uning



bilan qaytdim. O'z navbatida dugonamni ham maktabimizda bo'ladigan «Balli, qizlar!» ko'rik-tanlovimizga taklif qildim. Endi undan uyaliq qolmaslik uchun astoydil hozirlik ko'ryapmiz.

*Nargiza AKBAR qizi,
Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi
249 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.*

DO'STLIK G'OLIB BO'LDI

tugaganini ham sezmay qolibmiz.

Qiyin bo'lganda,

hakamlarga qiyin bo'ldi. Bilimdonligu ijrochilik mahoratida bir-birlaridan qolishmaydigan guruhlar qay birini g'olib deb topish haqida ancha bosh qotirishlariga to'g'ri keldi. Nihoyat, bir ovozdan odilona qaror chiqarishdi: 25 - 25 ball bilan do'stlik g'olib chiqdi. Faol ishtirokchilarga sovg'alar ulashildi.

Men ham dugonam Azizani samimiy tabrikladim. «Kechangiz juda ajoyib o'tdi» dedim hayajonimni yashira olmay.

-Kechamizning bunday maroqli va chiroyli o'tishida uning tashkillashtirgan ustozimiz til va adabiyot fani o'qituvchisi Nasiba opa Turdiqulovning, shuningdek, maktabimiz direktori o'rinbosari Gulchehra opa Turg'unova, fan o'qituvchisi Zumrad Baxrinova, «Qizlar» klubi raisi Nigora opa Shomansurovalarning xizmatlari juda katta. Buning uchun ulardan minnatdormiz. Shunday mehribon, fidoiy ustozlarimiz borligidan xursandmiz, -dedi dugonam faxr bilan.

Bayram bir bahona Sirg'alidan bir olam taassurotlar bilan qaytdim. O'z navbatida dugonamni ham maktabimizda bo'ladigan «Balli, qizlar!» ko'rik-tanlovimizga taklif qildim. Endi undan uyaliq qolmaslik uchun astoydil hozirlik ko'ryapmiz.

Nargiza AKBAR qizi,

*Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi
249 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.*

Ona yurt - olin beshing

**TONG
Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
**O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOYIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.
Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № F-153
Gazetani
Ma'suda
IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75